



FARG'ONA VILOYATI BUVAYDA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2024-yil 21-oktabr

123-11-154-F/24

Buvayda tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi “Budjet kodeksi”ning 28, 73-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4102-sonli qarori ijrosini ta’minalash maqsadida hamda tuman Ichki ishlar bo‘limining 2024-yil 11-snetyabrdagi 188-sonli xatini inobatga olib, 3-sektor shtabi binosini ta’miralash va moddiy texnika ta’minotini yaxshilash uchun qurilish materiallari hamda kerakli jihozlar sotib olish xarajatlariga **40.0 (qirq) mln.so‘m** mablag‘ tuman mahalliy budgetining 2024-yil zaxira mablag‘lari hisobidan tuman hokimligiga ajratilsin.

2. Tuman hokimligi bosh hisobchisiga:

- ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish va uning maqsadli, to‘g‘ri yo‘naltirilishini ta’minalash;
- moliyalashtirish manbasini ochish uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni tegishli Iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda G‘aznachilik bo‘linmalariga taqdim etilishini ta’minalash vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Ergashev)ga ajratilgan mablag‘lar doirasida xarajatlar smetasini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish, tuman g‘aznachilik xizmati bo‘linmasi (Sh.Soliyev)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

4. Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari D.Maxsitaliev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



**IBRAGIMOV
BEXZOD.ODILJONOVICH**